

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VAADABIYOTI
UNIVERSITETI**

O‘ZBEK TILI FAKULTETI

O‘ZBEK TILI KAFEDRASI

NOSHIRLIK ASOSLARI FANI O‘QITUVCHI SILLABUSI

Tuzuvchi: Davronov A S.

Fan/modul kodi 300.1NA4M	O‘quv yili 2020-2021	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 4	
1-semestrda ECTS – Kreditlar soni 4	Ta’lim tili O‘zbek tili		Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning darajasi Umumkasbiy fan	Fan/modul turi Majburiy		Модул раҳбари Davronov A.S. davronov@navoiy-uni.uz	
Universitet binosi 4-bino	Hafta kunlari Seshanba, payshanba.		Vaqt Kunning ikkinchi yarmida	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	<i>Noshirlik asoslari</i>	<i>1-semestr</i> 60	<i>1-semestr</i> 60	<i>1-semestr</i> 120
1-simestr	Modul 1	60	60	120
	JAMI	60	60	120

<p>Fanning tavsifi - Ushbu fan noshirlik ishining tarixi, kitob tarixi, bosma ishlar tarixi, gazetalar va jurnallarni nashr qilish tarixi, noshirlik ishiga oid davlat hujjatlari, noshirlik ishining texnologik sxemasi, noshirlik mahsulotlarining turi va tiplari, qo‘lyozma va originalni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar, noshirlik mahsuloti o‘lchash birliklari, poligrafik ishlar uchun materiallar kabi masalalarni qamrab oladi. Noshirlik ishi yuzasidan talabalarni zarur bo‘lgan bilimlar bilan qurollantiradi. “Noshirlik asoslari” fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar turkumiga kiradi. Mazkur fan noshirlik ishiga oid boshqa fanlarning nazariy va uslubiy asosini tashkil qilib, o‘z rivojida aniq yo‘nalishdagi fanlar uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi.</p>	
<p>Fan mohiyati-- talaba noshirlik mahsuloti o‘lchash birliklari, poligrafik ishlar uchun materiallar, noshirlik mahsulotida chiqish ma’lumotlari, kitoblarni raqamlashning xalqaro standartlari, seriyali mahsulotlarni raqamlashning xalqaro standartlarini qo‘llash ko‘nikmalariga -- mualliflik huquqi, noshirlik ishida faktching, noshirlik ishida marketing va menejment, noshirlik ishining ijtimoiy va texnologik muammolarini yechish malakasiga ega bo‘lishi lozim.</p>	
<p>Fanning natijasi -- noshirlik ishining tarixi, kitob tarixi, bosma ishlar tarixi, gazetalar va jurnallarni nashr qilish tarixi, noshirlik ishiga oid davlat hujjatlari, noshirlik ishining texnologik sxemasi, noshirlik mahsulotlarining turi va tiplari, qo‘lyozma va originalni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida bilimga ega bo‘ladi.</p>	
<p>Baholash me‘zonlari – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018 yil 26 sentyabrdagi 3069-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi” nizomga muvofiq ishlab chiqildi. Baholash ON, YaN dan iborat.</p> <p>A. Baholash</p> <p>1) Oraliq nazorat – 40 %, o‘z ichiga: – Seminarlarda faol ishtiroki – 5%; – O‘quv-mashg‘ulot (to‘shiriqlarni bajarishi) – 5%; – mavzular yuzasidan (test asosida javob berish) – 30%;</p> <p>2) yakuniy nazorat (test asosida javob berish) – 60%.</p> <p>B. Baholash</p>	
Baholash usullari	Og‘zaki so‘rov, taqdimotlar, yozma topshiriqlar
Fan bo‘yicha talabalar bilimni nazorat qilish va baholash	<p>Nazorat shakllari</p> <p>Baholash turlari fan xususiyatidan kelib chiqqan holda so‘rovlar, og‘zaki savol-javob, yozma ish, taqdimotlar ko‘rinishida o‘tkazilishi mumkin.</p> <p>Mustaqil fikrlash va tanqidiy mulohazani o‘zida ifodalagan mukammal ish bajarilishi ko‘zda tutiladi. Qo‘yilgan masalalar talaba tomonidan tegishli metodologiya, uslub va ma’lumot manbalaridan foydalangan holda, ishonchli dalillar asosida ochib berilishiga qaratiladi. Mulohazalarni yetarli darajada rivojlantirish, analitik fikr yuritishga o‘rgatiladi.</p>
5 (A)	Ish yetarli darajada mustaqil va tanqidiy fikr-mulohazalarni, analiz va

100-86	sintez qilish qobiliyatini, mantiqiy izchillikni, qator manbalardan foydalanilib keng mulohazada yuritishni hamda mavzuni mukammal tushunishni namoyon etadi. Shuningdek, ish juda yaxshi tadqiq qilinib, javobda asosli mulohazalar bildirilgan bo‘ladi. Ushbu ish original va talqin mohirona olib borilganligi, tadqiqot tanqidiy tahlil va tanqidiy baholash orqali zarur tadqiqot metodologiyasi, uslublari va manbalaridan foydalanilgan holda yondashilganligi bilan ajralib turadi. Ish yuqori ta'lim standartlari asosida yozilgan bo‘lib, biroz tahrir qilish orqali mukammal darajaga yetkazilishi mumkin.
4 (B) 85-71	Ish mavzuning aniq anglanganligi va tadqiqot sohasidagi munozaralarda tanqidiy ishtirok etish imkoniyatini ifoda etib, malakali va metodologik xususiyatga ega. Tadqiqot masalalari aniq ko‘rsatib o‘tilgan va javob berilgan. Asosiy mulohazalar aniq, misollar hamda asoslar o‘rinli qo‘llanilgan. Ish “A” darajadagi ishlarga qaraganda ‘astroq sifatda va unchalik original emas. Ishda fikrlar yaxshi tartibda keltirilgan, bayon aniq hamda mantiqan izchil, kirish va xulosa qismlari ravon ifodalangan. Manbalardan yuqori darajadagi ishlardek tizimli yondashilmagan bo‘lsa-da, o‘rinli qo‘llanilgan. Ish “A” darajadagi ishlar kabi izchil bo‘lmasa-da, tahliliy qobiliyatni namoyon etadi. Ushbu ish yaxshi ta'lim standartlarini o‘zida ifodalagan holda jiddiy grammatik va sintaktik xatolardan holi ravishda yozilgan.
3 (C) 70-56	Ishda ishonchli talqin va asoslar keltirishda xatolarga yo‘l qo‘yilgan. Savolga qisman javob berilgan. Ish asosan bayoniy tarzda (tahlildan holi) ifodalangan. Mantiqiy bog‘lash yetarli darajada emas. Ba’zi xulosalar xato keltirilgan. Ushbu darajadagi ishlar muammo mavzusini bazaviy anglashni va bilimni qo‘llash bo‘yicha ma'lum ko‘nikmalarni namoyon etadi. Manbalar ko‘rsatilmagan yoki to‘g‘ri ko‘rsatilmagan yoxud yetarli darajada ko‘rsatilmagan. Ushbu ish qoniqarli talablar asosida, biroq bir qancha grammatik va sintaktik xatolarga yo‘l qo‘yilgan holda yozilgan.

Ta’lim berish va o‘qitish metodlari – barcha ilmiy faoliyat turlari taqdimot-loyihalar, videodarslar orqali o‘zbek tillarida o‘qitiladi, mustaqil bajartirish orqali baholanadi.

Kalit so‘zlar—Noshir, nashr, nashriyot, tahrir, muharrir, kitob, gazeta, jurnal, bosmaxona, bosma, toshbosma, elektron kitob, elektron kutubxona

“Noshirlik asoslari” fani bo`yicha ma`ruza mashg`ulotlar:

№	Mavzular	Dars soatlari hajmi
1	“Noshirlik asoslari” faniga kirish	1
2	Bosma kitob davrigacha bo`lgan davr	1
3	Temuriylar davrida qo`lyozma kitoblar	1
4	Yevropa va Rossiyada noshirlikning vujudga kelishi	1
5	Yevropa va Rossiyada noshirlikning vujudga kelishi	1
6	Yevropa va Rossiyada noshirlikning vujudga kelishi	1
7	Turkistonda noshirlik ishining vujudga kelishi	1
8	Turkistonda noshirlik ishining vujudga kelishi	1
9	Toshkentda noshirlik ishi	1
10	Dunyo noshirlik tizimi rivojining asosiy tendensiyalari	1
11	Dunyo noshirlik tizimi rivojining asosiy tendensiyalari	1
12	Dunyo noshirlik tizimi rivojining asosiy tendensiyalari	1
13	Dunyo noshirlik tizimi rivojining asosiy tendensiyalari	1
14	XX asr noshirlik ishi tarixi. Mustaqillik davrida noshirlikning rivoji	1
15	Zamonaviy noshirlik ishi	1
	Jami	15

1-semestr

“Noshirlik asoslari” fani bo`yicha amaliy mashg`ulotlar.

1-semestr.

№	Amaliy mashg`ulotlar mavzulari.	Dars soatlari hajmi
1	Noshirlik ishiga oid davlat hujjatlari.	1
2	Noshirlik ishining texnologik sxemasi.	1
3	Noshirlik mahsulotlarining turlari va tiplari.	1

4	Noshirlik mahsulotlarining turlari va tiplari.	1
5	Mualliflik huquqi.	1
6	Mualliflik huquqi.	1
7	Elektron raqamli kitob bozori.Elektron (raqamli) kitob bozori. (raqamli) kitob bozori. Elektron (raqamli) kitob bozorining biznes modeli	1
8	Elektron raqamli kitob bozori.Elektron (raqamli) kitob bozori. (raqamli) kitob bozori. Elektron (raqamli) kitob bozorining biznes modeli	1
9	Elektron kutubxonalar tizimi.Internet makonda noshirlik ishining rivojlanish tendensiyalari.	1
10	Elektron kutubxonalar tizimi.Internet makonda noshirlik ishining rivojlanish tendensiyalari.	1
11	Qo`lyozma va originalni rasmiylashtirish talablari.	1
12	Qo`lyozma va originalni rasmiylashtirish talablari.	1
13	Noshirlik mahsulotini o`lchash birliklari.	1
14	Poligrafik ishlar uchun materiallar.	1
15	Noshirlik mahsulotining chiqish ma`lumotlari	1
16	Kitoblarni raqamlashning xalqaro standarti	1
17	Kitoblarni raqamlashning xalqaro standarti	1
18	Noshirlik ishida marketing va menejment	1
19	Noshirlik ishida marketing va menejment	1
20	Noshirlik ishida faktcheking.	1
21	Noshirlik ishida faktcheking	1
22	Noshirlik ishining ijtimoiy va texnologik muammolari.	1
23	Noshirlik ishining ijtimoiy va texnologik muammolari.	1
24	O`zbekiston respublikasida faoliyat olib borayotgan nashriyotlar	1
25	O`zbekiston respublikasida faoliyat olib borayotgan nashriyotlar	1
26	Dunyo kitob bozori, "Raqamli dengiz"da. Raqamlilashtirish va o'zgartirish sharoitida kitob bozorining rivojlanish tendensiyalari	1
27	Dunyo kitob bozori, "Raqamli dengiz"da. Raqamlilashtirish va o'zgartirish	1

	sharoitida kitob bozorining rivojlanish tendensiyalari	
28	Dunyo miqyosida nashr ishlarining rivojlanish tendensiyalari.	1
29	Dunyo miqyosida nashr ishlarining rivojlanish tendensiyalari.	1
30	Noshirlik ishi va kitobxonlik madaniyati.	1
	Jami	30

“Noshirlik asoslari” fani bo`yicha seminar mashg`ulotlar.

1-semestr.

№	Seminar mashg`ulotlar mavzulari.	Dars soatlari hajmi
1	“Noshirlik asoslari” faniga kirish.	1
2	Yozuvning paydo bo`lishi, uning tarixi.	1
3	Evropa va Rossiyada noshirlikning vujudga kelishi.	1
4	Evropa va Rossiyada noshirlikning vujudga kelishi.	1
5	Temuriylar davrida noshirlik ishi.	1
6	Turkistonda noshirlik ishining vujudga kelishi.	1
7	Toshkentda noshirlik ishi.	1
8	Dunyo noshirlik tizimi rivojining asosiy tendensiyalari.	1
9	Dunyo noshirlik tizimi rivojining asosiy tendensiyalari	1
10	Dunyo noshirlik tizimi rivojining asosiy tendensiyalari	1
11	Dunyo noshirlik tizimi rivojining asosiy tendensiyalari	1
12	XX asr noshirlik ishi tarixi. Mustaqillik davrida noshirlikning rivoji.	1
13	Noshirlik ishiga oid davlat hujjatlari.	1
14	Noshirlik mahsulotlarining turlari va tiplari.	1
15	Zamonaviy noshirlik ishi.	1
	Jami	15

Noshirlik asoslari faniga oid savollar.

- 1.Noshirlik asoslari fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
- 2.Noshirlik asoslari fanining ob`ekti deganda nimani tushunasiz?
- 3.Noshirlik asoslari fanining predmeti deganda nimani tushunasiz?
- 4.Noshirlik faoliyatining mazmuni qanday belgilanadi?
- 5.Nashriyot qolyozmani qabul qilib olishda nimalarga e`tibor berishi kerak?
- 6.Muharrir qanday asosga ko`ra ish boshlaydi?
- 7.Muharrir kim o`zi, u qanday mutaxassis bo`lishi mumkin?
- 8.Musahhah kim u qanday faoliyat turi bilan shug`ullanadi?
- 9.Yozuv deganda nima tushunasiz?
10. Yozuv qachon paydo bo`lgan?
- 11.Yozuv qanday taraqqiy etdi?
- 12.Yozuv haqida yana qanday ma`lumotlarga egasiz?
- 13.Piktografik yozuv haqida nima deysiz?
- 14.Piktografik yozuvning boshqa yozuvlardan qanday farqi bor?
- 15.Ideografik yozuvning ieroglifik yozuvdan farqi nimada?
- 16.Ideografik yozuvning boshqa yozuvlardan farqi nimada?
- 17.Fonografik yozuv nima?
- 18.Fonografik yozuvning boshqa yozuvlardan farqini tushuntiring?
- 19.Temuriylar kitoblar va qo`lyozma kitoblarga qanday qarashgan?
- 20.Sohibqiron kutubxonasida qanday kitoblar saqlangan?
- 21.Sultonali Mashhadiy kim edi ?
- 22.Hirot xattotlariga kim ustozlik qilgan?
- 23.Mirzo Bo`ysunqur noshirlik ishiga qanday hissa qo`shadi?
- 24.Sultonali Mashhadiy kimlarning asarlarini ko`chirib nom qozondi?
- 25.Temutiylar davrida kutubxonalar qaysi shaharlarda tashkil etilgan?
- 26.Bo`ysunqur Mirzo kutubxonasida nechta xattot ishlagan?
- 27.Firdavsiyning “ Shohnoma” asari nechanchi yilda kim tomonidan ko`chirilgan?
- 28.”Sulton ul-xattotin”, “Qiblat ul-kuttob” unvonlari kimga tegishli?
- 29.Miniatyuralar qaysi asarga ishlangan va u qayerda saqlanadi?
- 30.Sultonali Mashhadiy ko`chirgan kitoblarning nechtasi bizgacha yetib kelgan?
- 31.Guttenberg matbaachiligining tarixi qanday bo`lgan?
- 32.Dastlabki bosma nashrlar qanday paydo bo`lgan?
- 33.Yevropada matbaa qanday tarqagan?
- 34.Yevropaning qaysi davlat va shaharlarida noshirlik ishi rivojlangan va keng tarqalgan?

35. Rossiyada noshirlik qachon va kimning nomi bilan boshlangan?
36. Jurnalistikaning noshirlik bilan qanday aloqasi bor?
37. Guttenberg ixtirosining tarixiy ahamiyati qanday?
38. Jurnalistika fanining asoschisi kim?
39. XV-XVI asrlarda Yevropada matbuot qanday rivojlandi?
40. Qo'lyozma varaqalar haqida eshitganmisiz?
41. Ilk gazetalarning ko'rinishi qanday bo'lgan?
42. Turkiston o'lkasida noshirlik qachon vujudga kelgan?
43. Muxammad Azim xoji Marg'iloniyning matbaatchilik va noshirlik faoliyati Turkistonda qanday voqea deb aytiladi?
44. Xivada M. Rahimxon litografiyasi nechanchi yillarda faoliyat yuritgan?
45. Bosmaxona faoliyatini kim yuritgan?
46. "Xurshid" nashriyot markasi haqida nima deysiz?
47. "Devoni Xolis" asari qachon va tomonidan nashr etilgan?
48. A. Navoiyning "Xamsa" asari qachon va kim tomonidan nashr etilgan?
49. Nashryotning birinchi nashri qachon amalga oshirilgan va kimning qaysi asari nashr qilingan?
50. Saroy toshbosmasida nashr qilingan asarlar soni qancha edi?
51. Feruzning she'rlar to'plami qachon nashr etilgan?
52. Saroy bosmaxonasi noshiri kim edi?
53. Nashrdan chiqqan kitoblarni kimlarga sotgan?
54. S. I. Laxtin bosmaxonasi faoliyatini qachon boshlagan?
55. Laxtin bosmaxonasida kim faoliyat yuritgan?
56. Laxtin bosmaxonasida qaysi asarlar chop etigan?
57. Bosmaxonani nima uchun sotib yubordi?
58. Bosmaxonani kim sotib oldi?
59. Esonboy Husaynboyev kitoblarni qaysi mablag' hisobiga nashr qilgan?
60. Laxtin nima uchun nashr faoliyati bilan shug'ullanmadi?
61. Laxtin o'zi kim edi?
62. Toshkent hududida bosmaxona paydo bo'lgunga qadar kitob tayyorlashda kotib, xattotlar faoliyati qanday bo'lgan?
63. Sidqiy Xondayliqiy (1884–1934) lar faoliyati qanday bo'lgan?
64. Toshkentda kitob bosishning yuzaga kelishi qay tarzda amalga oshirilgan?
65. Toshkentda bosma usul bilan kitob chiqarishning XIX asrning ikkinchi yarmidan Turkiston o'lkasini chor Rossiyasi istilo etganidan keyin tarqalishi qanday amalga oshirilgan?
66. Toshkentlik noshir Esonboy Husaynboyev faoliyati. (1883-1884) haqida nimani bilasiz?
67. S. I. Laxtin toshbosma matbaasining turkiston milliy kitoblari (1883— 1893)

haqida nima aytib beraolasiz?

68.O.A.Portsev toshbosma matbaasining miliy turkiston kitoblari (1888— 1918) haqida nima deysiz?

69.G`ulom Hasan Orifjonov toshbosma matbaasi faoliyati (1893— 1923) nimalarni esingizga soladi?

70. V.M.Ilin toshbosma matbaasining turkiston milliy kitoblari (1896— 1918) nimalar haqida gapiradi?

71.1920- yilning martida Toshkentda Turkiston davlat nashriyoti (Turkdavnashr) ta`sis etilishi haqida nimalarni bilasiz?

72.XX asr noshirlik ishi tarixi haqida nima deysiz?

73.Mustaqillik davrida noshirlikning rivoji qanday bo`ldi?

74.O`rta asrlarda Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida bosma uskunaning yaratilishi qanday amalga oshirilgan?

75.VIII-IX asrlarda Xitoyda matbaachilik ishlarining rivojlanishi natijalari qanday bo`ldi?

76.Qadimgi Xitoy matbaachiligining rivojlanishi haqida nima deysiz?

77.Koreyadagi quyma bronza literalari nimalar haqida gapiradi?

78.Ilklk ksilografik bosma namunalari qayerda topilgan?

79.Yaponiyada qanday ishlar amalga oshirilgan?

80.Bertelsmann kompaniyasi haqida umumiy ma`lumot bering.

81.Amerika Online va Bertelsmann qo`shma korxonasi haqida nima deysiz?

82.Pengiu Random Hous -- dunyodagi eng yirik kitob nasriyotining Bertelsmannga qanday aloqasi bor?

83.Gruner + Janr-jurnal nashriyoti qanday jurnallarni ishlab chiqaradi?

84.BMG – musiqa nashr kompaniyasi qanday mahsulotlar ishlab chiqaradi?

85.Arvalo – xalqaro xizmat ko`rsatuvchi provaydning vazifasi nimadan iborat?

86.Bertelsmann ta`lim guruhi nima ish bilan shug`ullanadi?

87.Bertelsmannning nechta bo`limlari mavjud?

88.Bertelsmann dunyoning qaysi davlatlarida faoliyat yuritadi?

89.Bertelsmann haqida qanday xulosa qilish mumkin?

90.Elsevier haqida umumiy ma`lumot bering.

91.Nashriyotga tegishli statistik ma`lumotlarni bilasizmi?

92.Nashriyot ishlab chiqaradigan mahsulotlar va xizmat turlari haqida nima deysiz?

93.Olib borilgan tadqiqotlar va axborot tizimi deganda nimani tushunasiz?

94.Konferensiyalar nima uchun xizmat qiladi?

95.Mahsulotlar narxi qanday?

96.Nima uchun soxta jurnallar haqida fikr yuritilgan?

97. Nima sababdan ishchi-xodimlar iste`foga chiqdilar?

98."Ilm qiymati" boykot bu nima degani?

- 99."S" reja kimga tegishli?
- 100.Nashriyotning dunyodagi ilmiy muassasalar bilan aloqasi qanday?
- 101.Qanday xulosa qilish mumkin?
- 102.Arnoldo Mondadori nashriyoti qachon va kim tomonidan tashkil etilgan?
- 103.Mondadori tarixi haqida nimani bilasiz?
- 104.Mondadori qanday mahsulotlar ishlab chiqaradi?
- 105.Mondadori tendensiyalari haqida nima deysiz?
- 106.Holtzbrinck nashriyoti qachon va kim tomonidan tashkil etilgan?
- 107.Holtzbrinck qanday natijalarga erishdi?
- 108.Holtzbrinck ishlarining rivojlanishi qanday?
- 109.Random House tarixi haqida gapiring.
- 110.Random House ishlari qanday rivojlandi?
- 111.Pearson ta`limi nashriyotining vazifasi nima?
- 112.Dunyo nashirlik tizimi rivojining biz uchun ahamiyati qanday?
- 113.Qanday xulosa qilish mumkin?
- 114.Noshirlik to`g`risidagi davlat qonuni qachon qabul qilingan?
- 115.Qonun nechta moddadan iborat?
116. Noshirlik faoliyati monitoringi va nazorati nechanchi moddada ko`rsatilgan?
- 117.Noshirlik faoliyatining erkinligi nechanchi moddada ko`rsatilgan?
- 118.Senzuraga yo`l qo`yilmasligi qaysi moddada belgilangan?
119. Noshirlik faoliyati to`g`risidagi qonun hujjatlari qaysi moddada ko`rsatilgan?
120. Noshirlik faoliyatini buzganlik to`g`risidagi modda qaysi?
- 121.Noshirlik faoliyatini tugatish to`g`risida qaysi modda belgilangan?
- 122.Matbaa mahsulotini olib chiqish va olib kirish to`g`risida?
- 123.Noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar qachon qabul qilindi?
- 124.Nashriyot deganda nima tushunasiz?
- 125.Nashriyotning qanday turlari bor?
- 126.Universal nashriyot strukturasi qanday bo`ladi?
- 127.Raqamli nashriyot tushunchasini qanday tushunasiz?
- 128.Mavzuga yana nimalarni qo`shimcha qilish mumkin?
- 129.Raqamli nashriyotning universal nashriyotdan farqi nimada?
130. Qo'lyozmani nashriyotga qabul qilish qanday amalga oshiriladi?
131. Noshirlik ishining texnologik sxemasi necha bosqichdan iborat?
- 132.Birinchi bosqichda nima ish qilinadi?
- 133.Ikkinchi bosqich qanday harakatni talab etadi?
- 134.Uchinchi bosqichning mazmuni qanday?
- 135.To`rtinchi bosqichda nima ish qilinadi?

136. Qo'lyozmani oldindan o'rganish va baholash jarayonida nimalarga e'tibor beriladi?
137. Qo'lyozmalar kim tomonidan tahlil qilinadi?
138. Mavzular asosida rejalashtirish deganda nimani tushunasiz?
139. Qanday xulosa qilish mumkin?
140. Chastotaga ko'ra nashr turlari deganda nimani tushunasiz?
141. Asosiy matn tarkibi bo'yicha nashr turlari qaysilar?
142. Axborotning ikonik tabiati to'g'risidagi nashrlar nimalar kiradi?

143. Belgilangan maqsadga mo'ljallangan, davriy bo'lmagan nashrlar necha turli?
144. O'quvchi manzilidagi nashrlar nima?
145. Axborot xarakteriga ko'ra Ilmiy va ilmiy -ommabop nashrlar qaysilar?
146. Rasmiy va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqarish nashrlariga nimalar kiradi?
147. Ishlab chiqarish va amaliy nashrlar qaysilar?
148. O'quv nashrlarning boshqa nashrlardan qanday farqi bor?
149. Ma'lumotnoma va reklama nashrlariga nimalar kiradi?
150. Adabiy va badiiy nashrlarning boshqa nashrlardan farqi?
151. Axborotni tahlil qilish va qayta ishlash mohiyati bo'yicha nashrlar qaysilar?
152. Tarkibning o'ziga xosligi bo'yicha nashrlarning boshqa nashrlardan farqi?
153. Ishlarni tashkil etish usuli bo'yicha nashrlar qaysilar?
154. Hajmi bo'yicha bosma nashrlar necha turga bo'linadi?
155. Davriy va doimiy nashrlarning bir-biridan farqi nimada?
156. Moddiy dizayn bo'yicha bosma nashrlar qaysilar?
157. Format bo'yicha bosma nashrlarning turlari nechta?
158. Dizayn tabiati va bosib chiqarish usuliga ko'ra bosma nashrlar nimalar?
159. Muallifning, noshirga bog'liqligi bo'yicha nashr turlari qaysilar?
160. Hodisa yoki shaxs sharafiga chiqarilgan nashrlarning turlariga nimalar kiradi?
161. Rossiyadagi elektron (raqamli) kitob bozori deganda nimani tushunasiz?
162. "ЛитРес" elektron raqamli kitob bozorining biznes modeli qaysi?
163. "Lit Res" tarixi haqida nimani bilasiz?
164. "Lit Res" qanday faoliyat turlari bilan shug'ullanadi?
165. "Lit Res" qanday xususiyatlarga ega.
166. Sammizdat nimani anglatadi?
167. Litr Qoramalari haqida nimani bilasiz?
168. Litr Reader nimani anglatadi?
169. Litr kutubxona nima?
170. Litr maktab nima?
171. My Book qanday xizmat turiga kiradi?
172. Live Lib qanday xizmat turi bilan shug'ullanadi?
173. "LitRes" qanday loyihalar ustida ish olib bormoqda?
174. Mobil kutubxona loyihasi haqida gapirib bering.

175. Amerikadagi elektron (raqamli) kitob bozori. "Google Play" elektron raqamli kitob bozorining biznes modeli va tarixi haqida qanday ma'lumotga ega bo'ldingiz?

176. "Google Play"ning qanday xususiyatlari sizga ma'lum?

177. "Google Play" tarixi haqida nima deysiz?

178. "Google Play"ning qanday loyihalari mavjud?

179. "Google Play": o'yinlari haqida qanday ma'lumotga egasiz?

180. Musiqasini eshitganmisiz?

181. Kitoblarini o'qiganmisiz?

182. Filmlari va teledasturlari tomosha qilganmisiz?

183. Yangi nashrlarini ko'rganmisiz yoki o'qiganmisiz?

184. Qanday qurilmalarga ega ekanligini bilasizmi?

185. Pass o'yinlarini o'ynaganmisiz?

186. Qurilma yangilanib turadimi?

187. Maxfiylik so'zi nima uchun ishlatiladi?

188. Muvofiqlik nima uchun kerak?

189. O'qituvchi nimani ma'qulladi?

190. Foydalanuvchi interfeysi nima?

191. Uning dizayni qanday?

192. Pul ishlash ilovalari nima uchun kerak?

193. Qanday to'lov usullaridan foydalaniladi?

195. Qanday sovg'a kartalariga ega?

196. Uni o'rnatish tarixi qanday?

197. Moslik deganda nimani tushunasiz?

198. Google Play qanday xizmat turlarini taklif qiladi?

199. Google Play mukofotlari va yillik ro'yxatlari haqida ma'lumot bering?

200. Ilovani qanday tasdiqlash mumkin?

201. Ilova nimalarni taqiqlaydi?

202. Xavfsizlik masalalari nimani anglatadi?

203. Patent masalalari nimaga kerak?

204. Amerikadagi elektron (raqamli) kitob bozori. "Amazon" elektron raqamli kitob bozorining biznes modeli va tarixi haqida nimalarni bilasiz?

205. "Amazon" nashriyoti faoliyati qanday xarakterlanadi?

206. Rossiya bilan qanday aloqalar o'rnatgan?

207. Tijorat hamkorlari kimlar, ular qayerlarda joylashgan?

208. Daromadlari haqidagi xulosalar qanday?

209. My Book -- G'arb raqamli kitobi haqida qanday ma'lumotga ega bo'ldingiz?

210. U qanday muhim nashrlarga ega?
211. Premium nashri haqida nima deysiz?
212. Pro Edition - bu nima?
213. Pro Edition II nima degani?
214. Premium Edition II avvalgi nashrlardan nimasi bilan farq qiladi?
215. Jahon nashri nima uchun kerak?
216. Tarmoq tezligi qanday ahamiyat kasb etadi?
217. Premium ES Edition boshqa nashrlardan qanday farq qiladi?
218. My Book haqida yana nimalarni bilasiz?
219. Bookmate nima? U haqida nimalarni bilasiz?
220. Bookmate tarixi haqida nimalarni o`qidingiz?
221. Bookmate qanday xususiyatlarga ega?
222. Axborot-kutubxona muassasalarida elektron katalog yaratish masalalari qanday amalga oshiriladi?
223. Elektron shakldagi axborot nima?
224. Zamonaviy axborot texnologiyalarning rivojlanishi axborotlarni kataloglashtirish va qidirishning qanday ilg`or usullariga o`tish imkoniyatini beradi?
225. «Online catalog» nima?
226. «Offline catalog» nima?
227. Formatlar o`rtasidagi o`xshashliklar nimani belgilaydi?
228. Elektron kataloglar bilan ishlash xususiyatlari deganda nima tushunasiz?
229. Elektron katalogning vazifalari nimalardan iborat?
230. EK funktsiyalari, tarkibi va yuritish texnologiyasi qanday amalga oshiriladi?
231. Raqamli kutubxonalar tushunchasi haqida nima deysiz?
232. Qo`lyozma nima? Original-chi?
233. Qo`lyozma va originalga qanday talablar qo`yiladi?
234. Hajm nima, unga e`tibor berish kerakmi?
235. Dastur, shrift, oraliq masofa(interval) deganda nimani tushunasiz?
236. Qo`lyozmaning nomi nimani anglatadi?
237. Mualliflar yozilishi kerakmi?
238. Muallifning ish joyi yozilishi kerakmi?
239. Annotatsiya va kalit so`zlar deganda nima tushunasiz? Ular nima uchun kerak?
240. Maqolaning tuzilishi va mazmuni nima uchun kerak?
241. Adabiyotlar ro`yxati berilishi kerakmi?
242. Adabiyotlar ro`yxati uchun qanday talablar qo`yiladi?
243. Adabiyotlar ro`yxatini rasmiylashtirish qanday bo`ladi?
244. Muallif bosma tabog`I deganda nimani tushunasiz?

245. Nashr tabog`I deganda-chi?
246. Nashr tabog`ini shartli bosma taboqqa keltirish uchun qaysi jadval ishlatiladi?
247. Mahsulotni o`lchash nima uchun zarur?
248. Qog`oz va karton. Qog`oz ishlab chiqarish to`g`risida qanday ma`lumotlarga egasiz?
249. Qog`ozning tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?
250. Sellyuloza nima uchun ishlatiladi?
251. Poligrafiya deganda nimani tushunasiz?
252. Poligrafiya materiallari qayerda tayyorlanadi?
253. Poligrafiya materiallari necha guruhga bo`linadi?
254. Poligrafiya texnologiyasi necha bosqichdan iborat?
255. Bosma nima? Bosmaning qanday turlari bor?
256. Asosiy ashyolarga nimalar kiradi?
257. Yordamchi ashyolarga nimalar kiradi?
258. Poligrafiya ashyolarini nima uchun o`rganamiz?
259. Chiqish ma`lumotlari deganda nimani tushunasiz?
257. Chiqish ma`lumotlarida nimalar aks etishi kerak?
258. Kitob muqovasi sahifasida nima aks etishi kerak?
259. Sarlavhalar aylanishi deganda nimani tushunasiz?
260. Bibliografik tavsif nima?
261. Rossiyada kitoblarni raqamlashning xalqao standarti qanday?
262. O`zbekistonda milliy standartlarnin necha xil turi bor?
263. Davlatlararo standartlar nechta?
264. Xalqaro standartlar nima uchun kerak?
265. Xalqaro standart kitob raqami qaysi harflar bilan belgilanadi?
266. Noyob kitoblar nashrining xalqaro raqami qaysi?
267. Xalqaro standart qaysi manba asosida ishlab chiqilgan?
268. Kordon Foster kim? Uning xalqaro standartga qanday aloqasi bor?
269. Xalqaro standart qachon qabul qiingan?
270. Nechanchi yil standartga o`zgartirish kiritilgan?
271. Standartga qanday o`zgartirish kiritilgan?
272. Xalqaro standart Rossiyada qachondan boshlab qo`llangan?
273. Xalqaro standart nimani anglatadi?
274. Xalqaro standart qisqa holda qaysi harflar bilan ifodalanadi?
275. Qaysi hollarda ishlab chiqarilgan kitob, sotish uchun qabul qilinmasligi mumkin?
276. O`zbekistonda qaysi standartdan foydalaniladi?
277. Xalqaro standart haqida yana qanday ma`lumotlarni bilasiz?

- 278.Xalqaro standartning mualliflik huquqiga aloqasi bormi?
- 279.Muallif kim?
- 280.Mualliflik huquqi nima?
- 281.Yurisdiksiya deganda nima tushunasiz?
- 282.Yurisdiksiyaning mualliflik huquqiga qanday aloqasi bor?
- 283.Mualliflik huquqi tarixi haqida nima bilasiz?
- 284.Bern Konvensiyasi nima?
- 285.O`zbekiston Bern Konvensiyasini qachon imzolagan?
- 286.Mualliflik huquqining qanday xususiyatlari bor?
- 287.Internetda mualliflik huquqini qanday bilish mumkin?
- 288.Mualliflik huquqi ob`ektlari nima?
- 289.Mualliflik huquqi kafolatlari to`g`risida nima deya olasiz?
- 290.Mualliflik huquqini buzmaslik uchun nima qilish kerak?
- 291.Mualliflik huquqini qanday himoya qilish mumkin?
- 292.Mualliflik huquqi haqida yana nima qo`shimcha qilish mumkin?
- 293.Marketing deganda nimani tushunasiz?
- 294.Marketing tushunchasini fanga kim olib kirgan?
- 295.Marketing qanday rivojlandi?
- 296.Marketingning noshirlikka qanday aloqasi bor?
- 297.Marketing O`zbekistonga qachon kirib keldi?
- 298.Menejment tushunchasi nimani ifodalaydi?
- 299.Menejmentning vazifasi nima?
300. Menejment fanining asoschisi kim edi?
- 301.Menejment O`zbekistonga qachon va qayerdan kirib keldi?
- 302.Menejmentning noshirlik sohasiga qanday aloqasi bor?
- 303.Noshirlik ishining ijtimoiy va texnologik muammolari nimalardan iborat?
304. Muammolarni yechishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
305. Muammoning yechimlari qanday hal etiladi?
- 306.Muammolarni yechimini hal qilish uchun nima qo`shimcha qilish mumkin?
- 307.Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini tashkil qilish qanday amalga oshiriladi?
- 308.Noshirlik ishi va Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari qanday hamkorlik qilishi mumkin?
- 309.Axborot-kutubxona, axborot-resurs markazlari va kutubxonalar uchun dasturiy ta`minotning qanday muammolari bor?
- 310.Muammolarga qanday yechimlar topish mumkin?
- 311.Noshirlik sohasiga oid prezident qarori qachon qabul qilindi?
- 312.Prezident qarori necha qismdan iborat?
- 313.Qarorda O`zbekiston respublikasida faoliyat yuritayotgan nashriyotlar

to'g'risida nima deyilgan?

314.O'zbekiston respublikasida faoliyat yuritayotgan nashriyotlardan qaysilarini bilasiz?

315.O'zbekistonda electron raqamli nashriyot bormi?

316.Dunyo kitob bozori haqida mutaxassislar fikrlariga qanday munosabat bildirasiz?

317. Ochiq kirishga o'tish sekin va muammoli deganda nimani tushundingiz?

318.Raqamli transformatsiya ko'p o'lchovli jarayonga qanday kirib boorish mumkin?

319.Nima uchun mualliflar mualliflik huquqi masalalari bilan qiziqishadi ?

320.Tarkib sifati masalalariga nimalar kiradi?

321.Noshirlarning xalqaro assotsiyasiyasi hisoboti kim tomonidan tayyorlanadi?

322. 2013-yilda ingliz tilidagi ilmiy davriy nashrlarning daromadi qancha bo'ldi?

323.Daromadning eng katta qismini kim qo'lga kiritgan?

324.Evropa davlatlari daromadlari qanday natijani ko'rsatadi?

325.Osiyoliklar qanday natijaga erishdilar?

326.Eng kam daromadni qaysi davlatlar qo'lga kiritgan?

327.Universitetlar o'rtasida grantlar nima uchun ajratildi?

328.Shaxsiy a'zolik nima?

329.Barcha hammualliflar individual a'zolik uchun nima qilishi kerak?

330.Ochiq kirish jurnallarining sakkiz asosiy turlari qaysilar?

331.Dunyo miqyosida umumiy tendensiyalar deganda nimani tushunasiz?

332.Jahon bosma bozorlari haqida qanday ma'lumotga ega bo'ldingiz?

333.Bosma mahsulot turlari bo'yicha bozor tuzilishi qanday rivojlanib bormoqda?

334.Bosib chiqarish texnologiyasining rivojlanish dinamikasi qanday xarakterlanadi?

335.Boshqa tendensiyalarga nimalar kiradi?

336.Rossiya matbaa bozorining holati va rivojlanish tendensiyalari qanday?

337.Rossiya bosma mahsulotlari bozori haqida qanday ma'lumotga ega bo'ldingiz?

338.Rus bosib chiqarish muammolari nimalardan iborat?

339.Muammolarni hal qilish uchun qanday usullardan foydalanish mumkin?

340.Dunyo miqyosida nashr ishlarining rivojlanish tendensiyalari haqida qanday xulosa qilish mumkin?

341.Dunyo noshirligi haqidagi ma'lumotlar biz uchun nimaga kerak?

342.O'zbekistonda noshirlarning rivojlanish tendensiyalari qanday?

Materiallar va adabiyotlar ro'yxati .

Asosiy adabiyotlar:

1. Tohirov Z. Tahrir asosalri. –Toshkent, 2012.
2. Мильчин И.Э. Издательский словарь-справочник. –М.: Юрист, 1998.
3. Акопов А.И. Общий курс издательского дела. – Воронеж, 2004.

Qo'shimcha adabiyotlar:

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farofon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent: O'zbekiston, 2016. -56 b.
5. Токарева Н.В. Современное издательское дело. –Воронеж, 2017.
6. Махмудов Н. Тил ва ёзув. –Тошкент, 1987
7. Махмудов Н. Ёзув тарихидан қисқача луғат-маълумотнома. –Тошкент: Фан, 1990. 8.
- Йўлдошев И. Ўзбек китобат санъати ва терминологияси. – Тошкент: Турон-иқбол, 2018.
9. Улуғмуродов Д. Қўлёзмадан китобгача (ўқув қўлланма). –Тошкент: Чўлпон, 2017.

Internet saytlari.

10. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
11. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
12. [www. Farnc.ru/rospechat/activites/reports/2017. html](http://www.Farnc.ru/rospechat/activites/reports/2017.html).
13. [http:// www.unkniga.ru](http://www.unkniga.ru) / - информатсионно-аналитический журнал «Университетская книга»
14. [www. bookunion.ru](http://www.bookunion.ru) – Российский книжный союз
15. www.bookind.ru - журнал “Книжная индустрия”
16. The international Publishers Association – www. Internationalpublishers.org /

O'qituvchining kontakt ma'lumotlari - davronov@navoiy-uni.uz

+998 - 97-761-00-85

O'qituvchi bilan haftalik konsultatsiya vaqti – seshanba, payshanba--15.00